



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi bosh o'qituvchisi

X.O'rmonov

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi 9-25 guruh o'quvchisi

Umarov Zikriyo

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi 9-25 guruh o'quvchisi

Tirkashalieva Ruhshona

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi va rivojlanishi bayon etilgan bo'lib, uning iqtisodiyotdagi ahamiyati va bu borada olib borilayotgan islohotlar muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, elektron tijorat, onlayn to'lov, infratuzilma, kiberxavfsizlik, avtomatlashtirilgan reestrlar, blokcheyn texnologiyalar.

Аннотация: В этой статье рассказывается о появлении и развитии цифровой экономики в нашей стране, обсуждается ее значение в экономике и проводимые реформы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, электронная коммерция, онлайн-платежи, инфраструктура, кибербезопасность, автоматизированные реестры, технологии блокчейн.

Abstract: This article discusses the introduction and development of the digital economy in our country, its importance in the economy and the reforms carried out in this regard.

Keywords: artificial intelligence, e-commerce, online payment, infrastructure, cyber security, automated registers, blockchain technologies.



Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Hozirgi vaqtda jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni "yangi iqtisodiyot" ni vujudga keltirdi, kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalarini tashkil etish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi, iste'molchi, xaridorva mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi va shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning keng qamrovli rivojlanishiga olib keladi

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa "digitalization" ya'ni raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat bo'lib, bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov "Raqamli iqtisod – haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit" - deb ta'rif bergan. Tomsk davlat universitetining professori, R. Meshcheryakovning fikricha "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita yondashish mavjud deb hisoblaydi.



Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o‘stirish, faoliyat shaffofligini ta‘minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi. Davlatning o‘z fuqarolari uchun elektron xizmatlarni ko‘rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi – bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismibo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma’lumotlarga ko‘ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog‘iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etdi. Respublika bo‘yicha 237 ta obyektida magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o‘tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas [4]. Blokcheyn texnologiyalari tomonlarning hech qanday vositachisiz bitimlarni xavfsiz, ishonchli amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiyadir. Uni ko‘pchilik kriptovalyuta texnologiyasi sifatida bilsa-da, aslida blokcheyndan raqamli identifikatsiya, egalik va mulkiy huquqlar ximoyasi, to‘lov tizimi sifatida foydalanish mumkin. Ethereum kabi blokcheyn bazasida ishlaydigan ochiq manbali platformalar an’anaviy huquqiy jarayonlarsiz har qanday aktivlar bo‘yicha bitimlar tuzish, bank xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beradi Hozirda jahonning turli mamlakatlarida moliyaviy texnologiyalar, yer resurslarini



boshqarish, transport, sogʻliqni saqlash, taʼlim sohalarida blokcheyn tizimidan foydalaniladi. Blokcheyn tizimi har qanday sohaning shaffoflik darajasini oshiradi, korrupsiya holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalarining imkoniyatlari nihoyatda istiqbolli hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotga boʻlgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda roʻy berayotgan jiddiy oʻzgarishlar tufayli sezilarli darajada oʻsdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, oʻzaro muloqotni yanada tez va oson yoʻlga qoʻyishga imkoniyat yaratdi.

Raqamli iqtisodning shakllanishi muayyan bazaga ega boʻlishi kerak, bu quyidagicha boʻlishi lozim:

- raqamli infratuzilmani va aloqa standartlarini ishlab chiqish; - axborot xavfsizligini taʼminlash;
- onlayn xizmatlarni kengaytirish; - fuqarolar uchun tarmoq ichidagi va onlayn kommunikatsiyalarga bepul kirishni yaratish;
- raqamli ekotizimlarda axborot oqimlari va bilimlarni boshqarishni takomillashtirish.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yoʻnaltirilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faoliyatni oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim

Biz mintaqaviy rivojlanish sohasida toʻrtta strategik vazifani belgilashni taklif qilamiz: **Birinchi**dan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida hududlarning



raqobatdoshligini oshirish va ularning resurs salohiyatini mustahkamlash; **Ikkinchidan**, inson resurslarini rivojlantirish; **Uchinchidan**, mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish hamda mintaqalarni rivojlantirish uchun institutsional sharoitlarni yaratish. **To'rtinchidan**, jarayonlarni samarali boshqarish va o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish uchun onlayn rejimda xo'jalik yurituvchi subyekt darajasida moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish uchun dasturiy ta'minotni taqdim etish uchun bevosita muloqot qilish va aloqa uchun aloqa tizimini yaratish kerak.

Ushbu vazifalar davlat tomonidan tadbirkorlik va kichik biznesni moliyalashtirishni maqsadli yo'naltirishda o'z vaqtida javob berish uchun mintaqaviy va davlat darajasida muntazam ravishda yangilanishi, qo'llab-quvvatlashi, monitoringini amalga oshirishi hamda muntazam yangilanishini taklif etadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lapidus L.V. Raqamli iqtisodiyot. - M.: Infra-M, 2019 yil.
2. Telekommunikatsiya infratuzilmasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda.
URL: <https://mitc.uz/uz/pages/communication>
3. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov nutqidan. 2020.
4. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
5. Umarov Omonilla Saydaminovich, "Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil. 8-b.



6. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рибокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2019. – №1 (276). – С. 105–110.

7. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta'lim sifati kafolatidir. Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум», (4), 83.